

**DUTOR CHOLG‘USI OHANGLARIDA MILLIY QADRIYATLARIMIZ
JILOSI**

Toirova Sevara Sarvar qizi SHDPI,
San'atshunoslik kafedrası
Musiqa ta'limi 2-kurs talabasi
Rahbar Esonova Marjona
marjonaesonova@gmail.com

Annotatsiya: Dutor o'zining mayin, dardli va yoqimli sadosi bilan nafaqat O'zbekistonda balki butun Markaziy Osiyo xalqlari orasida mashhur bo'lgan cholg'u. Ushbu maqolada dutorning kelib chiqishi, tuzilishi ijrochilik an'analari va hozirgi ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Dutor, qadimdan. Torlari, cholg'u, ustoz-shogird, ijrochilar.

**БЛЕСК НАШИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В
ИНСТРУМЕНТАЛЬНЫХ ТОНАХ DUTOR**

Аннотация: Дутор-инструмент, который своим нежным, болезненным и приятным звучанием пользуется популярностью не только в Узбекистане, но и у народов Центральной Азии. В этой статье рассказывается о происхождении, структуре, исполнительских традициях дутора и его нынешнем значении.

Ключевые слова: Dutor, давным-давно. Струнные, инструментальные, мастер-ученик, исполнители.

**THE PALETTE OF OUR NATIONAL VALUES IN THE TONES OF THE
INSTRUMENT DUTOR**

Annotation: the Dutor with its gentle, daring and pleasant Echo is an instrument that is popular not only in Uzbekistan, but among the peoples of all of Central Asia. This article discusses the origins, structure of dator's performance traditions, and current significance.

Keywords: Dutor, from time immemorial. Strings, instruments, master-disciples, performers.

O'zbek xalqi qadimdan boy madaniy san'at merosiga ega. Ayniqsa, milliy musiqa san'ati xalqimizning tarixiy hayot tarzini, ruhiyatini, orzu-intilishlarini ifoda etib kelgan. Shu san'at turlaridan biri-dutor ijrochiligidir. Dutor ikki torli cholg'u bo'lib, uning nomi forsha "du" (ikki) va "tor" (ip) so'zlaridan tashkil topgan. Bu so'z

bevosita cholg'uning tuzilishiga mos keladi, ya'ni dutorning ikki dona tori mavjud. Dutorning tanasi, bo'yni va qopqog'i yog'ochdan yasaladi. Asosan tut, yong'oq, archa yoki qayrag'och daraxti yog'ochlari ishlatiladi. Torlari esa ilgari ipak ipdan tayyorlangan bo'lsa, hozirda sintetik yoki metall ipdan tayyorlanadi. Dutorning uzunligi odatda 85-100sm atrofida bo'ladi. U qo'lda chalinadi, torlar barmoqlar bilan chertilib, turli ohanglar hosil qilinadi. Cholg'uning ovozi yumshoq va mayin jozibali bo'lib, u xalq kuylarini, lapar va termalarini ijro etishda keng qo'llaniladi.

Dutor cholg'usi tarixi ming yilliklar oldin, qadimgi Sharq musiqiy madaniyatiga borib taqaladi. Arxeologik topilmalar va yozma manbalarda torli cholg'ularning qadimiy shakllari haqida ma'lumotlar mavjud. O'zbek musiqasida dator asosan xalq orasida keng tarqalgan, bo'lib har bir viloyatga o'ziga xos ijrochilik uslublari shakllangan. Masalan, Farg'ona - Toshkent dutorchiligi mayin, muloyim ohanglarga boy bo'lsa Buxoro - Xorazm uslubi tezkor va jo'shqin kuylar bilan ajralib turadi. Qashqadaryo va Surxondaryo dutorchiligida esa dostonchilik an'anasi bilan chambarchas bog'liq kuylar ijrochilar tomonidan ijro etiladi.

O'zbek san'atida dator ijrochiligi bilan mashhur bo'lgan ko'plab ustozlar mavjud. Ular orasida To'ychi Toshmuhammedov, Usta shodi, Abduvali Abdurashidov, Matyusuf Jalilov kabi san'atkorlar alohida o'rin egallaydi. Ularning ijrolari orqali dator sadosi xalq dostonlari, qo'shiqlari va kuylarini yanada jozibali tarzda ifoda etgan. Har bir ustoz o'z shogirdlariga dator chalish sir-asrorlarini o'rgatib, bu san'atni avloddan avlodga yetkazgan. Shu tariqa dator ijrochiligi o'zbek xalqining bebaho ma'naviy merosiga aylangan.

Bugunki kunda dator nafaqat xalq ansambllarida, balki professional musiqiy sahnalarda, konservatoriyalar va san'at maktablarida ham keng qo'llanilmoqda.

Dutor milliy orkestrlarda, xalq bayramlarida, konsertlarda xalqaro tanlovlarda o'ziga xos o'rin tutadi.

UNESCO tomonidan ham o'zbek xalqining dator ijrochiligi " Nomoddiy madaniy meros" sifatida e'tirof etilgan. Bu esa dutorning nafaqat milliy, balki jahon miqyosida qadrlanishidan dalolat beradi.

Mutaxassis o'qituvchining vazifasi.

1. O'quvchining dator ushlash ijro davomidagi tayanch nuqtalari, o'ng va chap qo'l vazifalari, ularning to'g'ri bajarilayotganini nazorat qilish hamda to'g'ri yo'lga quyish.

2. O'quvchi nota savodi va musiqiy nazariyasidan ham yetarlicha ega bo'lishi hamda musiqani varoqdan bimalol o'qib chalishi shart.

3. O'ng qo'l dator zarblarini baholi qudrat to'liq o'zlashtirishi lozim.

4. Chap qo'l barmoqlarini texnik imkoniyatlarini mumkin qadar rivojlantirish zarur.

5. Dunyo musiqiy asarlarini, qaysi millatga taaluqli bo'lsa, shu millatning musiqiy tilini mazmunan aniq, ravshan ijro eta oladigan manaviy yetuklikni ta'minlash lozim.

6. O'quvchi har bir chalayotgan asarining kompozitori yoki bastakorining hayoti va ijodi, qaysi davr tizimida yashaganligi hamda boshqa ma'lumotlarini bilishi shart.

7. Yangi pedagogik texnologiyalaridan, masalan, komputer, internet, DVD pleyer, proyektor, MP3 pleyer va hattoki mobil telefonlaridan ham unumli foydalanish mumkin.

8. O'quvchilar uchun asar tanlashda ularning xilma xil xarakteriga va mazmuniga e'tibor berish lozim.

Masalan: Bir o'quv yilida o'quvchi

- A) 5-6 ta o'zbek xalq musiqasi namunalaridan.
- B) 2 ta O'zbekiston bastakorlari asarlaridan
- D) 2ta klassik kompozitorlar asarlari namunalaridan.
- E) 2ta chet el kompozitorlari asarlaridan ijro etishi lozim

Xulosa qilib aytganda Dutor - bu oddiy cholg'u emas, balki xalqimizning ma'naviy boyligi, tarixiy xotirasi va yurak ohangidir. U orqali o'zbek xalqining ruhiy kechinmalari, quvonch va dardlari, muhabbat va orzulari ifodalanadi. Bugunki kunda ham dator sadosi milliy musiqa san'atining ajralmas qismi bo'lib, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dutori asrab-avaylash, uni o'rganish va rivojlantirish har birimizning burchimizdir. Chunki dator- bu o'zbek xalqining yurak sadosidir.

Dutor cholg'usi zamonlar sinovidan o'tib, bizning ajdodlarimiz va bizning davrimizgacha o'zining ijro xususiyatlarini yanada yorqinroq namoyish qila oladigan nafosatli soz sifatida rivojlanib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi - T: " o'z ME " nashriyoti, 2000.
2. Qodirov.A o'zbek xalq cholg'ulari tarixi - Toshkent, 2018.
3. Madrahimova D. O'zbek musiqa madaniyati asoslari. — Toshkent, 2021.